

O‘SMIRLARNI IJTIMOY MUHIT TA‘SIRIDA PSIXIK XUSUSIYATLARINING RIVOJLANISHI.

**Karimova Fotima,
Andijon davlat pedagogika instituti
“Texnologik ta’lim” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘smir yoshdagi avlod organizmining anatomik, fiziologik va jismoniy jihatdan rivojlanish davrlarining asoslari, o‘smirlarning hayot tarzi xususiyatlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Fiziologik, psixologik, jismoniy, muhim, faoliyat, o‘qish, muloqot, ruhiy, ma’naviy, xususiyatlar, a’zolar, o‘zgarishlar, tashqi qiyofa, jinsiy balog‘at, jiddiy munosab, qarama-qarshiliklar, yetuklik.

O‘smirlik davrida, asosan, bilish jarayonlari yuqori darajada rivojlanadi. Bu yo‘llarda o‘smirlarga hayot davomida kerak bo‘ladigan asosiy shaxsiy va tadbirkorlik xususiyatlari ochiq ko‘rina boshlaydi. Xotira, mexanik xotira darajasidan mantiqiy xotira darajasiga kutariladi. Nutq rivojlangan, xilma-xil va boy tafakkur esa o‘zining barcha ko‘rinishlari: harakatli, obrazli, mantiqiy darajasida rivojlanadi. usmirlarni endi turli amaliyot va aqliy faoliyatlarga o‘rgatish mumkin. Shuningdek, bu davrda umumiy va maxsus layoqatlar shakllanadi va rivojlanadi.

O‘smirlik davriga juda ko‘p ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar xos. Maktab dasturi va boshqa ishlar bilan bog‘liq turli masalalarni yechishda ko‘zga tashlanadigan o‘smirlarning intellektual rivojlanganligi kattalarni ular bilan birga jiddiy muammolar bo‘yicha fikrlashga undaydi, o‘smirlarning o‘zlari ham bunga harakat qiladilar. Boshqa tomondan esa ayniqsa, kelajak kasb, xulq-atvor etikasi, o‘z majburiyatlarga mas’ullik kabi muammolar muhokamasida infantillikni (yosh bolarlarga xos jismoniy va psixologik holat) kuzatish mumkin.

5-6 sinf o‘quvchilariga sinfdagi o‘zi egallagan mavqeiga katta e’tibor berish xususiyati xos. Ayniqsa, 6-sinfdan boshlab, o‘quvchilar o‘z tashqi ko‘rinishlariga, shuningdek qarama-qarshi jinsdagi bolalar va ular bilan o‘zaro munosabatlariga e’tibor bera boshlaydilar.

7-sinf o‘quvchilarida esa oz layoqatlarini rivojlantirishga xos qiziqish yuzaga keladi. 8-sinf o‘quvchilari esa mustaqillik, o‘ziga xoslik, do‘stlik va o‘rtoqlik bilan bog‘liq bo‘ladigan shaxsiy xislatlarni yuqori baholashadi. O‘smirlarning ana shu ketma-ket yuzaga keladigan qiziqishlariga asoslangan holda faol ravishda irodaviy ishbilarmonlik va boshqa foydali sifatarni rivojlantirish mumkin.

O‘smirlik davrida o‘quv fanlarini turli o‘qituvchilar o‘qitish munosabati yuzaga keladi. Kattalar shaxsi va faoliyatyai baholashning yangi mezonlari ham ularda shakllana boshlaydi. O‘smirlik asosan, bilimli, talabchan, haqqoniy, o‘quv materialini qiziqarli va tushunarli yo‘l bilan yetkaza oladigan o‘qituvchilarni ajratmaydigan, o‘qituvchilarni ko‘proq hurmat qiladilar va yaxshi ko‘radilar. Ular o‘qituvchi bilan munosabatlariga ham katta e’tibor beradilar.

10-15 yoshli bolalarning faoliyat motivlarida ham o‘zgarishlar amalga oshadilar. Ilk o‘smirlik davrida ko‘pchilik o‘smirlar o‘zlariga salbiy shaxsiy xarakteristika beradilar. Katta bo‘lgan sari o‘smirning o‘z-o‘ziga bergan bahosi differentsyal xarakterda (xulq-atvoriga, ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini tutishga va ayrim xatti-harakatlariga) namoyon bo‘la boshlaydi.

Jinsiy yetilish o‘smirning bu yoshdagi xulq-atvoriga asosiy biologik vosita sifatida ta’sir o‘tkazadi. Lekin, bu bevosita ta’sirdir. Sotsial omillar esa quyidagilardir: kichik maktab yoshidan o‘rta maktabga o‘tish, ya’ni yakka o‘qituvchi rahbarligidan ko‘pchilik o‘qituvchilar tasarrufdagi o‘tish va muloqotdagi o‘zgarishlar ijtimoiy foydalanishlarni kengaytirib borish,

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

mustaqil va amaliy ishlarni ko’proq bajarish, shu bilan birga bolaning oiladagi o’rni ham o’zgaradi. Ushbu o’zgarishlar ta’sirida bolalar jismoniy va aqliy imkoniyatlarini o’sib borishi munosabati bilan o’zlariga ko’proq ishona boshlaydilar, u endi oilaviy muammolar muhokamasida ham idrok eta boshlaydi. Katta o’smirlarga nisbatan kichik o’smirlarda paydo bo’ladigan kelisha olmaslikni ulardagi jinsiy yetilishiga emas, balki atrofdagi shart-sharoitlar, oiladagi ota-ona, aka-ukalarning unga munosabati, mahalla-ko’y, ya’ni sotsial sharoitlar ta’siri bilan bog’lash zarur.

Shu ijtimoiy sharoit ijtimoiy va ulardagi psixologik iqlimni o’zgartirish bilan, kichik o’smirdagi yomon xulq-atvor, o’jarlik, kamchiliklarini tan olmaslik kabi tabiiy xislatlarning oldini olish mumkin.

Ba’zi o’qituvchilar kichik o’smirdagi bu o’zgarishlar urushqoqlik va salbiy alomatlar o’jarliklarining ildizlari qayerdan kelib chiqadigan va nimani bog’langanligi, nimaning ta’siri ekanligi bilmay turib, noto’g’ri tashxis va xulosalar keltirib chiqaradilar va bu aksariyat holda fojiaga olib kelishi mumkin.

Xulosa o’rnida ta’kidlash lozimki, ana shu muloqot va munosabat asosida o’smirlarda g’urur hissi shakllana boshlaydi, Albatta, g’urur norma va qoidalari kattalardan o’rganiladi, lekin o’z g’ururini qanday himoya qilishi o’smirlarning alohida nazoratida bo’ladi. Ular orasida sodiqlik va to’g’rilik kabi xislatlar yuqori baholanib, sotqinlik o’z so’ziga bevafoqlik, egoizm, qizg’onchiqlik qattiq qoralanadi va qattiq jazolanadi. Bu jazo u bilan urishish, kaltaklash unga qarshi baykot e’lon qilish va uni yolg’izlatib qo’yish shaklida bo’lishi mumkin. O’smirlar o’zini hurmat qilishini, o’z fikrini va qiziqishini himoya qilishni bilmagan tengdoshlariga juda past baho beradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik texnologiya. T., 2004.
2. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o’qituvchisi psixologiya. T., 1998.
3. G’oziev E. Psixologiya. T., “O’qituvchi”, 1994
4. Krutetskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari. T., “O’qituvchi”, 1976
5. Tolibdjanovna, A. Z. (2023). Psychological Factors of Manifestation of Aggressive Behavior in Teenagers during Globalization.
6. Tolibdjanovna, A. Z. (2024). Social and psychological factors in the formation of psychological culture of students. *Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 4(2), 428-431.
7. Tolibdjanovna, A. Z. (2024). Psychological factors in the manifestation of aggressive behavior in adolescence. *Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali*, 4(2), 122-125.
8. Xosilbekovna, S. F. (2024). The impact of globalization on the manifestation of aggressive behavior in adolescence. *Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy JURNALI*, 4(2), 134-137.
9. Khosilbekovna, S. F. (2024). Ethnopsychological Predictors of the Process of Acculturation in Migrant Students. *International Journal of Formal Education*, 3(2), 199-203.